

# HOZIRGI DAVR YOSHLAR PSIXOLOGIYASIGA DOIR AYRIM

## MA'LUMOTLAR

Bayrambekova Sevinch Ma'ruf qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va Psixologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Yoshlar psixologiyasi – inson rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, u jismoniy va ruhiy o‘zgarishlar, ijtimoiy va shaxsiy shakllanish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada yoshlarning psixologik xususiyatlari, hozirgi zamon yoshlarining muammolari, ular o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar, o‘zini anglash va motivatsiya masalalari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va media ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar psixologiyasi, hozirgi davr, ontogenet, shaxsiyat, o‘zini anglash, ijtimoiy aloqalar, motivatsiya, texnologiyalar, media ta’siri.

Yoshlar psixologiyasi - turli yoshdagi odamlar xususiyatlarini, bir yosh davridan boshqa yosh davriga o‘tishda ularning psixik rivojlanishini o‘rganuvchi psixologiya fani sohasi hisoblanadi. Yoshlar psixologiyasi odamning tug‘ilganidan boshlab to keksaygunicha bo‘lgan davr (ontogenet)da amalga oshadigan ruhiy rivojlanishi va shakllanishi bosqichlarini o‘rganadi. Yoshlar psixologiyasi mustaqil fan sifatida XIX asrning oxirlarida shakllandi.

Dastavval bolalar psixologiyasi sifatida yuzaga kelgan. Yoshlar psixologiyasi uzoq vaqt bola ruhiy rivojlanishi mexanizmlarini o‘rganish bilan cheklanib kelgan, biroq insoniyat taraqqiyotining keyingi darajalari odam ontogenetik rivojlanishini yanada kengroq va chuqurroq o‘rganishni taqozo etganligi munosabati bilan bu fanning tadqiqot doirasi kengayib bordi. Hozirgi vaqtga kelib Yoshlar psixologiyasining bolalar psixologiyasi, yetuklik davri psixologiyasi, gerontopsixologiya (keksalik psixologiyasi) kabi sohalari farqlanadi[5]

Yoshlar psixologiyasi – inson hayotining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda shaxsiyatning shakllanishi, ijtimoiy faollikning ortishi, o‘zini anglash va qarorlar qabul

qilish jarayonlari amalga oshadi. Hozirgi zamon yoshlarining hayotida ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar, shuningdek, globalizatsiya va yangi ma'lumotlar oqimi katta rol o‘ynamoqda. Ularning psixologik holati, jismoniy va ruhiy rivojlanishida turli omillar, jumladan, zamonaviy texnologiyalar, o‘qish, ish bilan bog‘liq stresslar va boshqa ko‘plab faktorlar muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Yoshlar – bu hayotning o‘zgacha bosqichini boshdan kechirayotgan shaxslar bo‘lib, ular nafaqat jismoniy, balki ruhiy rivojlanish jarayonidan ham boshidan o’tkazmoqdalar. Yoshlarning o‘zini anglash, identifikatsiya qilish, va atrof-muhit bilan muloqot qilishdagi psixologik o‘zgarishlari ularning psixologik xususiyatlarida aks etadi. Bu bosqichda o‘zini kashf qilish, qarorlar qabul qilish va ijtimoiy ro‘lni anglash kabi masalalar muhim ahamiyatga ega[2].

Hozirgi davr yoshlarining psixologik muammolari xususida fikr yuritadigan bo’lsak, zamonaviy yoshlar ko‘plab yangi psixologik muammolarga duch kelmoqdalar. Ulardan biri, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining kuchli ta’siri, bu esa o‘zini qadrlash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, stress, depressiya, o‘zini yo‘qotish hissi, o‘qish yoki ish bilan bog‘liq psixologik yuklar, o‘zgaruvchan jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilish kabi muammolar ham dolzarb hisoblanadi[4].

Yoshlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalar muhim rol o‘ynaydi. Do‘stlar, oilaviy munosabatlar, ta’lim muassasalarida o‘rganilgan tajribalar yoshlarning psixologik rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ijtimoiy muloqotlar orqali yoshlar o‘zlarini boshqalar bilan solishtirib, o‘zlarini tushunishga harakat qiladilar. Shu bilan birga, ularning motivatsiyasi ham o‘zgacha: hozirgi yoshlar o‘zining kelajagi va shaxsiy rivojlanishiga katta e’tibor qaratishmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ko‘p vaqtini onlayn faoliyatlar egallamoqda. Social media, video o‘yinlar, YouTube va boshqa onlayn platformalar yoshlarning fikrlash tarziga va psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologiyalarning salbiy va ijobiy ta’siri mavjud. Masalan, virtual dunyo bilan haqiqiy dunyo o‘rtasidagi chegarani

anglash, internatdagi bullying yoki tanqidiy fikrlash qobiliyatining pasayishi kabi muammolar yoshlar psixologiyasiga ta'sir qilishi mumkin[1].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Yoshlar psixologiyasi o'zgaruvchan dunyoda juda muhim soha bo'lib qolmoqda. Hozirgi davr yoshlarining psixologik holati ijtimoiy va texnologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Yoshlarning o'zini anglash, ijtimoiy aloqalar va motivatsiya masalalari ular uchun muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, texnologiyalar va media ta'siri yoshlarning psixologiyasida o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin. Bu masalalar yoshlar bilan ishlashda, ular uchun psixologik yordam ko'rsatishda va samarali rivojlanish uchun sharoit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Arnett J. J. Yosh yetuklik: Kech o'smirlikdan yigirma yoshlar oralig'idagi o'zgaruvchan yo'l. 2015. Oxford University Press [ingliz tilidan tarjima].
2. Erikson E. H. Shaxsiyat: Yoshlar va inqiroz. 1968. W.W. Norton & Company. [ingliz tilidan tarjima]
3. Santrock J. W. O'smirlik davri. 2018. McGraw-Hill Education [ingliz tilidan tarjima].
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000. 196-b.
5. [www.wikipedia.org](https://www.wikipedia.org). internet sayti